“Maxam-Chirchiq” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat xaridlarida shaffoflik masalalari muhokama qilindi

// 02 February 2026 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/maxam-chirchiq-ajda-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-va-davlat-



Joriy yilning 29-yanvar kuni “O‘zkimyosanoat” AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi bosh mutaxassisi O‘.Yuldashev rahbarligida “Maxam-Chirchiq” AJda mas’ul boshqarma va bo‘limlar rahbarlari hamda xodimlari ishtirokida yig‘ilish o‘tkazildi.



Yig‘ilishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga alohida urg‘u berilgani, shuningdek, davlat xaridlari tizimida shaffoflik va raqobatni ta’minlashga qaratilgan PF-259 va PF-270-sonli Farmonlarda belgilangan vazifalar muhokama qilindi.

Tadbirning asosiy maqsadi korrupsiyaning oldini olish, davlat xaridlarini isloh qilish va raqamlashtirish, shaffoflikni kuchaytirish hamda korrupsiya xavflarini kamaytirishdir.

"Maxam-Chirchiq" AJ Matbuot xizmati